

ABDULLA QODIRIY "O‘TGAN KUNLAR" ROMANINING MILLIY O‘ZIGA XOSLIGINING AHAMIYATI

Sirojiddinov Bobur Qamariddin o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti ab-11guruh talabasi

Jumaniyazova Nasiba Saparboyevna

Toshkent davlat transport universiteti, o‘qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qodiriy "o‘tgan kunlar" romanining milliy o‘ziga xosligining ahamiyati hamda tilning tadrijiy rivojlanish tamoyillarini aniqlash, ifoda imkoniyatlarini keng ko‘lamda tahlil qilishda shu tilda yaratilgan badiiy asarlarning leksik-grammatik, stilistik, pragmatik, lingvomadaniy, sotsiolingivistik xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ehtiyojdan kelib chiqib o‘zbek tilshunosligining bugungi kundagi eng muhim vazifalaridan biri hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi leksik lakuna (bo‘shliq)larni to‘ldirish, bu borada shevalardagi, badiiy asarlardagi so‘zlarni adabiy tilga olib kirish va shu asosda til leksikasini boyitishdir.

Kalit so‘zlar: Lakuna, maqol, hikoya, sarlavha, yakun, o‘z ma‘nosi, ko‘chma ma‘no, tana qilmoq, kinoya, Abdulla Qodiriy, leksika.

KIRISH

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va takomil topishida o‘tgan asrning 30-yillari alohida o‘rin tutadi. Tarixiy an‘analar va aql bovar qilmas yangiliklar ta‘sirida o‘sib, voyaga yetgan o‘zbek ziyolilari ilm- ma‘rifat orqali xalqni uyqudan uyg‘otish, milliy o‘zlikni tiklash ishiga zo‘r berganligi hammamizga ma‘lum. “Har bir millatning taraqqiy va taoliysi yoshlarning ilm va ma‘rifatiga, hunar va san‘atiga bog‘lidir”, — deb yozgan edi o‘sha davr allomalaridan biri Abdulla Avloniy. Shu bois, XX asrning boshlarida yashab ijod etgan o‘zbek yozuvchilari o‘z asarlarida yoshlarni ilm olishga da‘vat qilish, ularning qalbida hunar va san‘atga rag‘bat uyg‘otish ishi bilan jiddiy shug‘ullandilar. Ular millatni g‘aflat uyqusidan uyg‘otishda ona tilimiz hisoblanmish — o‘zbek tiliga, uning ifoda imkoniyatlaridan keng foydalanishga, til sofliğini saqlab qolishga katta e‘tibor berdilar.

O‘sha davrda o‘zbek tili takomili oldida uchta yo‘l paydo bo‘lgan edi:

1. Arabiy va forsiy so‘zlar, izofalar keng qo‘llanilgan holda rivojlanib kelayotgan klassik o‘zbek tili.
2. Usmonli turk, tatar tillari ta‘sirida shakllanayotgan o‘sha zamonning rasmiy, badiiy — publitsistik tili.
3. Asrlar davomida shakllanib, o‘z takomilini topgan, sodda va tushunarli bo‘lgan xalq jonli tili.

Xalq bilan birga bo‘lgan, uning dardini tushunib yetgan o‘zbek ziyolilari uchinchi — eng to‘g‘ri yo‘lni tanladilar. Bundan dissertatsiyamizga manba vazifasini o‘tagan "O‘tkan kunlar" romanining muallifi Abdulla Qodiriy ham mustasno emas.

Ongning tinimsiz taraqqiy etishi natijasida shakllanuvchi lisoniy ehtiyoj tilning barcha tushunchalarni nomlash borasidagi imkoniyatlari cheklanganligi natijasida yuzaga keladi. Til egalarining uzluksiz ijtimoiylashuvi, mehnat bilan shug‘ullanishlari, tabiat sir-sinoatlarini bilishga intilishlari natijasida tafakkur ham tez sur‘atlar bilan rivojlanadi. Til taraqqiyoti mazkur leksik bo‘shliq (lakuna)larning tezroq to‘ldirilishini taqozo etadi¹. Shu bois yangi tushunchalar tezroq nomlanishga muvaffaq bo‘ladi. Til egalari nomlash kechimida yangi tushunchani atashda tilning

ichki imkoniyatlaridan to‘laroq foydalanishga intiladi. Zero, yangi tushunchaning jamoa uchun tushunilishi va ommalashuvchan bo‘lishi shu jihatga bog‘liq.

Bugungi kunda lakunani o‘rganish faqat ikki tildagi farqli jihatlarni aniqlashdangina iborat emas. Til leksikasining tizimli to‘ldirilishi, boyitilishi uchun ham mazkur lingvistik hodisani chuqurroq tadqiq etish lozim. Tadqiqotchilar o‘z ona tillarini o‘zga til bilan qiyoslab, leksik sathdagi bo‘shliqlarni aniqlashga va ularni bartaraf etishga intilmoqda, shuningdek, tafakkur va tasavvur bilan bog‘liq, ongda shakllanadigan yangi tushunchalarning paydo bo‘lishini hamda ularning nomlanish jarayonlarini ham obyektiv o‘rganishga harakat qilmoqdalar. O‘zbek tilshunosligida ham bu boradagi ishlarni jonlantirish, milliy til tarkibidagi lahja va dialektlarni adabiy til bilan qiyoslash asosida adabiy til leksikasidagi lakunalarni aniqlash hamda to‘ldirish til taraqqiyotini, sofligini ta‘minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Hozirgi o‘zbek tili bilan bog‘liq tadqiqotlarning aksariyatida tahlilga tortilgan materialning manbai o‘zbek yozuvchilarining asarlaridir. Tilning holati, undagi xilma-xil hodisalar, qonun-qoidalarni tavsiflovchi darslik va boshqa o‘quv qo‘llanmalarda ham asosiy faktik material badiiy asarlardan olinadi. Ma‘lumki, Abdulla Qodiriy romanlari tili o‘zbek tilining o‘ziga xos milliy xususiyatlarni aks ettirgan bo‘lib, roman matni bugungi kunda o‘zbek tili birliklaridagi o‘zgarishlar, evrilishlar, rivojlanishlarning eng xolis ko‘zgusi bo‘lib xizmat qiladi.

Jadidchilik davri ijodkorlari til vositalaridan o‘ziga xos tarzda foydalanganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Ta‘kidlash kerakki, bu davr shoir, yozuvchilari milliylikka alohida e‘tibor beradi. Shunday yozuvchilardan biri – o‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriydir. Yozuvchi asarlari tili ma‘lum ma‘noda hozirgi o‘zbek adabiy tili poydevori hisoblanadi. Abdulla Qodiriy asarlarida tilimizdagi so‘zlarning salkam ikki asr oldingi holati, adabiy tilning taraqqiy etish jarayonini kuzatish mumkin. Har qanday matnda grammatik vositalar fikrni ifodalashda ishtirok etadi, jumlaning shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, oddiy holatni ilmiy kuzatishga qanday zarurat bor, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Abdulla Qodiriy nafaqat milliy romanchilikka

asos soldi, balki o‘zbek tilining naqadar nafis bir til ekanligi, uning milliy xususiyatlari, qo‘llanilgan har bir so‘zning salmog‘ini ko‘rsatib berdi.

O‘zbek tilini rivojlantirish, uning nufuzini oshirish bo‘yicha katta islohotlar olib borilayotgan ayni paytda milliy tilimizning asl tabiatini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlar juda zarur. Ayniqsa, Abdulla Qodiriyning tilga munosabati, uning tildan foydalanish mahoratini o‘rganish, xususan, uning romanlari tilidagi grammatik xususiyatlar keng miqyosda o‘rganilishi zarur. Mazkur maqolada yozuvchining milliy ruhda yozilgan romanlari o‘rganib chiqilganda badiiy asarning muvaffaqiyatini ta‘minlab beruvchi grammatik vositalarning, lakunalarning o‘rni va ahamiyati ochib berildi. Abdulla Qodiriy asarlarining o‘rganilishida ko‘p jihatlari inobatga olingan bo‘lsada, uning asarlaridagi lakunalar hali o‘rganilmagani ma‘lum. Ushbu maqolamizda Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi ba‘zi lakunalarni ko‘rib chiqamiz.

Grammatik vositalar, ayniqsa, so‘zga qaraganda qo‘shimcha ko‘proq (talaffuzda) assimilyatsiyaga uchrab, ba‘zan tushunarsiz shaklga kelib qolishi mumkin, romandagi ayrim so‘zlarning yozilishi, aytilishi o‘sha so‘zning etimologiyasidan ham xabar beradi: Faqat bundan foydalang‘uchilar ikki xalq orasig‘a adovat urug‘ini sohib yurg‘uchi bir necha e‘vogar boshluqlarg‘inadir.

Mazkur so‘zning hozirgi varianti “ig‘vogar” bo‘lib, ig‘voning mohiyati anglashilmaydi. E‘vogarda esa “oh-voh qilib yuruvchi kishi” ma‘nosi anglashiladi va bu mohiyatga to‘la mos keladi.

Romanlar matnining ahamiyatli jihati shundaki, undagi voqealar muallif yashagan davrdan ham oldinroq sodir bo‘lgan, yozuvchi o‘sha davrni aks ettirish uchun davr tilini o‘rgangan. Har holda jadidchilik davri asarlari o‘zbek tili ruslashishdan ancha xoli ekanligi, 1938 yildan keyingina o‘zbek tili grammatikasiga rus tilining ta‘siri sezila boshlagani ma‘lum. Shu sababli o‘rganilayotgan asar tilida milliy grammatikaning asoslarini ko‘rish mumkin. “O‘tkan kunlar” romani xalq orasida juda ommalashgani, hatto o‘qishni bilmaydiganlar ham eshitib zavqlangani bejiz emas, chunki asar xalqchil tilda yozilgan, demak uning grammatikasi ham sun‘iy emas.

Saroy qop-qorong‘i, tinch uyquda, ammo bu tinchlikni saroy otxonasidagi otlarning kart-kurt xashak chaynashlari va atrofdagi xo‘rozlarning qichqirishlarig‘ina buzilar edilar.

Xashak bu uy hayvonlari qo‘y, echki, sigir, ho‘kiz, ot kabilar uchun yemish hisoblanadi. Uning xashak deyilishiga sabab u asosan qurib qolgan o‘t o‘landan iborat bo‘ladi. Xashak so‘zi hozirgi kunda adabiy tilga ham ancha kirib kelgan barcha uchun tanish bo‘lgan lakunalardan biri hisoblanadi.

–Manimcha, o‘risning bizdan yuqoridalig‘i uning ittifoqidan bo‘lsa kerak, – dedi Otabek, – ammo bizning kundun-kunga orqag‘a ketishimizga o‘z ora nizoimiz sabab

bo‘lmoqda, deb o‘ylayman, boshqa xil aytqanda Ziyo amakining fikrlari qisman to‘g‘ri. Oramizda bu qo‘rqunch holatka bahaqqi tushunadig‘an yaxshi odamlar yo‘q.

Bahaqqi so‘zi eski o‘zbek tili so‘zlaridan bo‘lib hozirgi kunda deyarli ishlatilmaydi. Aniqrog‘i hozirgi kunda uning o‘rniga ko‘proq halol, vijdonli so‘zlarini qaysidir ma’noda ishlatish mumkin. -Ba old qo‘shimcha haq Olloh ma’nosida ishlatiladi. Ushbu jumlada Olloh uchun ma’nosida qo‘llangan.

–Shamshodbekning bazmiga, hali Shamshodbekning to‘yidan xabaring yo‘qmi? Jur, Sodiq jiyanim, basharangmi, do‘lda qolg‘an tappimi? (O‘.K., 184.)

Tappi so‘zini, ayniqsa ikki til o‘rtasidagi lakuna deb olsak ham bo‘ladi. Sababi boshqa tillarda tappi tushunchasi mavjud ammo nomlanmagan. Sababi tappi bu mol ahlatining maxsus quritib tayyorlangan asosan qishloqlarda yondirib uylarni, issiqxonalarini isitishda ishlatiladigan narsa. Bu yerdagi jumlada tappi so‘zi salbiy o‘xshatish ma’nosida ishlatilgan.

Ba‘zan hayvon va qushlarga o‘xshatish orqali ham lakunalar vujudga kelishi mumkin. Oradag‘i g‘arbg‘a qarab tortilg‘an ko‘chani ham bosib to‘g‘rig‘a o‘ta boshlag‘an edilar, uzoqdan ot yeldirib to‘g‘rig‘a kelguchi otliqni ko‘rgan Sodiq ko‘chaning o‘rtasida to‘xtadi. Haligi mushtumzo‘r yigit uni bir turtdi-da: – “Yur, yur, itbachcha, jinni-minni bo‘ldingmi?” deb sudray boshladi, boshqalar ham unga to‘rt tomondan chug‘urchiqdek yopishdilar. (O‘.K., 185-bet)

Chug‘urchuq qushi biror narsaga ko‘pchilik bo‘lib shovqinli ovoz chiqargani holda yopishgani ehtimol shunday nomlangan qushdir. Xalqimiz bunday holatlarni e‘tiborsiz qoldirmaydi. Asarning bu jumlasida ham yozuvchi mahorat bilan so‘z qo‘llagan.

Romanda bir-biriga ma‘no jihatdan yaqin, o‘zakdosh so‘zlarning ham yonma yon qo‘llanganiga ko‘plab misollarni ko‘rish mumkin: Uyoq-buyoqdan shom azoni eshitila boshlag‘an edi. Ma‘lum otliq qutidorning darbozasida otini to‘xtatdida, o‘ng oyog‘ini uzangudan uzdi.

Uzangu bu otlarning ustiga kiygiziladigan egarning oyoq qo‘yadigan qismi hisoblanadi. Ba‘zan uzangi tarzida talaffuz qilinadi.

Siz o‘risning Shamayigacha borg‘ansiz. – Yurgan daryo, o‘lturgan bo‘ryo emish, – dedi Akram hoji. Shamayda o‘ylag‘anlarim, oshiqqanlarim shirin bir xayol emish.

Bo‘yra — pishgan qamish po‘stini tozalab to‘qiladigan solinchiq (to‘shama). Uy-joylarda namat (kigiz), gilam, palos tagidan to‘shaladi. Bo‘yrani bo‘yrachilar to‘qiydi. Bo‘yra paloslarni tuproq va zaxdan saqlagan; imorat tomini yopishda vassa ustidan qo‘yilgan, to‘y-hashamlarda, turli marosimlarda foydalanilgan, mevalarni yoyib quritishda, quritilgan mevalarni qishda saqlashda bo‘yrani choklab, qop o‘rnida ishlatganlar. Hozir ham to‘qiladi. Shunday bo‘lsada hozirda ko‘pchilik bo‘yra nima ekanligini bilishmaydi. Shu sababli bo‘yra so‘zi ham lakunaga aylanib bormoqda.

Abdulla Qodiriy asarlarida implitsit ifodalangan haqorat, qarg‘ishlar ham mavjud: Qo‘lingdan qamchin, belingdan oshpichoq, shopdek murtingning ostidag‘i sassiq og‘zingdan “Qizingni... onangni... diningni... ota-bobongni...” degan zikri oliylar doim favvora urar edi. (“Mochalov”)Murt mo‘ylov bo‘lib ba‘zan murut holida ham talaffuz qilingan. Hozirgi kunda murt so‘zining muqobili mo‘ylov bo‘lganligi sababli lakunaga kirita olmaymiz ammo o‘sha davr nuqtayi nazaridan lakuna deyish mumkin.

XULOSA

Abdulla Qodiriy xalq maqollarini o‘z asarlarida unumli ishlatib, ularning purhikmat va purma‘no fazilatidan foydalanib, o‘quvchi e‘tiborini jalb qilishga erishadi. Yozuvchi maqolni ba‘zan o‘z asl holicha, bazan butunlay o‘zgartirib o‘z badiiy asarlarida qo‘llab, ularning ta‘sirchanligini, badiiyligini oshiradi. O‘quvchini xalqqa yaqinlashtirishga erishadi. O‘quvchi asarga o‘z qadrdoni kabi munosabatda bo‘lishiga erishadi.

REFERENCES

1. Қодирий А. Ўткан кунлар. – Т.: Navro‘z, 2019. – 396 б.
2. Жалалова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи. – Т., 2010. – 112 б.
3. Быкова Г.В. Лакунарность как категория лексической системологии. – Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003. С.201-260
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар) 1-жилд. – Т., 2000. – 600 б.
5. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Фан ва технологиялар, 2010. – 414 б.
6. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya (fanidan ma‘ruzalar kursi) Т.: Universitet, 2014.
7. Holmonova Z. Alisher Navoiyning zamonaviy tilshunoslik taraqqiyotidagi o‘rni // Alisher Navoiy, №1, II jild.– Т., 2021. – В. 9-18.
8. Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фанлари д-ри дисс. –Тошкент, 2015. – 240 б.